

NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMI






O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 6- sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son farmonda 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. 2020/2021- o‘quv yilidan boshlab O‘zbekistonda boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimida tegishli ta’lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlardan iborat professional ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etildi.

Kasb-hunar maktablarining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi, birlikda (2020/2021- o'quv yili boshida)

Navoiy	→	1	Navbahor	→	1
Zarafshon	→	1	Nurota	→	2
Konimex	→	1	Tomdi	→	-
Karmana	→	1	Uchquduq	→	1
Qiziltepa	→	2	Xatirchi	→	1

Navoiy viloyati bo'yicha 2020/2021- o'quv yili boshida 11 ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, ulardan 2 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Kasb-hunar maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi, kishida (2020/2021- o'quv yili boshida)




2020/2021- o'quv yili boshida kasb-hunar maktablarida 2646 nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, bu ko'rsatkich shahar va tumanlar kesimida taqsimlanganida, boshqa hududlarga nisbatan o'quvchilarning yuqoriligi Navoiy shahrida – 576 nafar o'quvchiga to'g'ri kelgan. Qishloq joylarda 385 nafar o'quvchi tahsil olgan.

Kasb-hunar maktablari o'qituvchi xodimlarining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi, kishi (2020/2021- o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz)

Navoiy	20	Navbahor	24
Zarafshon	24	Nurota	27
Konimex	17	Tomdi	-
Karmana	34	Uchquduq	14
Qiziltepa	39	Xatirchi	28

2020/2021- o'quv yili boshiga kasb-hunar maktablari jami o'qituvchilar soni 227 nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etgan. Shundan qishloq joylarda o'qituvchi xodimlar soni 39 nafarni (17,2%) tashkil etgan.

Bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, kishi (2020/2021- o'quv yili boshida)




Navoiy viloyati bo'yicha kasb-hunar maktablarida bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 12 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Bulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida qayd etilib, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 29 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Xatirchi tumanida esa eng past ko'rsatkich, ya'ni, bitta o'qituvchiga o'rtacha 7 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.

Kollejlarning shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi, birlikda (2020/2021- o'quv yili boshida)



Kollejlarda ta'lim olayotgan o'quvchilarning shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi, kishida (2020/2021- o'quv yili boshida)





Navoiy viloyatida 2020/2021- o'quv yili boshida 5 ta kollejlarda 1040 kishi tahsil olayotgan bo'lib, ulardan qishloq joylarda 460 kishi tashkil etadi. Bu ko'rsatkich shahar va tumanlar kesimida taqsimlanganida, boshqa hududlarga nisbatan o'quvchilarning yuqoriligi Xatirchi tumanuda – 338 kishiga to'g'ri kelgan.

Kollejlar o'qituvchi xodimlarining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi, kishi
(2020/2021- o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz)




Bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, kishi (2020/2021- o'quv yili boshida)




2020/2021- o'quv yili boshiga Navoiy viloyati bo'yicha jami kollejlarda 102 nafar o'qituvchi xodimlar faoliyat yuritmoqda. Navoiy viloyati bo'yicha kollejlarda bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 10 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.



Texnikumlarning shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi, birlikda (2020/2021- o'quv yili boshida)




Texnikumlarda ta'lim olayotgan o'quvchilarning shahar va tumanlar kesimidagi taqsimlanishi, kishi (2020/2021- o'quv yili boshida)




Navoiy viloyatida 2020/2021- o'quv yili boshida texnikumlarda jami 3006 nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, o'quvchilar shahar va tumanlar kesimida taqsimlanganida boshqa hududlarga nisbatan o'quvchilarning yuqoriligi Navoiy shahrida – (1102 kishini tashkil etgan) qayd etilgan. Qishloq joylarda 377 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.



Texnikumlar o'qituvchi xodimlarining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi, kishi
(2020/2021- o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz)



Bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, kishi (2020/2021- o'quv yili boshida)



2020/2021- o'quv yili boshiga Navoiy viloyati bo'yicha jami texnikumlarda 177 nafar o'qituvchi xodimlar faoliyat yuritmoqda. Navoiy viloyati bo'yicha texnikumlarda bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 17 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Bulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Zarafshon shahrida qayd etilib, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 30 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Xatirchi tumanida esa eng past ko'rsatkich, ya'ni, bitta o'qituvchiga o'rtacha 8 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.

**Akademik litseylarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020/2021- o'quv yili boshida)**

O'quv yili boshiga	Akademik litseylar soni, birlik	O'quvchilar soni, kishi	Bitiruvchilar soni, kishi	O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz), kishi
2019/2020	3	1411	1596	117
2020/2021	3	1473	604	112

Navoiy viloyatida 2020/2021- o'quv yili boshiga 3 ta akademik litseylarda 1473 nafar o'quvchi ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 509 nafari qizlar.





Navoiy viloyati statistikasi boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel.: (79) 223-54-98